
Qo'shtepa tumanida «Yosh kitobxon» ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi.

Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumanidagi «**Yoshlar markazi**» joriy yilning 15 avgust kuni erta tongdan o'z bag'riga yosh kitobxonlarni jamladi.

Har qachongidan ham gavjum manzara kasb etgan markazda «**Yosh kitobxon**» ko'rik-tanlovining hududiy bosqichiga «**start**» berildi.

10-14 yosh toifasi bo'yicha 19 nafar «**Yosh kitobxon**» Respublika bosqichi uchun o'zaro bahslashdi.

Qizg'in bahs-munozaralar ostida kech tanlov natijalariga ko'ra, O'zbekiston tumanidagi 22-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchisi **Muhammadfozil Ismoilov** 184,7 ball bilan faxriy 1-o'rinni egalladi hamda Respublika bosqichiga yo'llanma oldi.















O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi Farg'ona viloyati Qo'shtepa
tuman Kengashi matbuot xizmati xodimi Sardorbek Orifov

2019-08-15 08:33:17